O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATI VA CHET EL FUQAROLARINING HUQUQIY MAQOMI: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO STANDARTLAR UYG‘UNLIGI

Nusratilloyeva Ruxshona Ravshanovna
Toshkent davlat yuridik universiteti

Huquq sohalari, huquqiy va siyosiy tadqiqotlar amaliy tahlili mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Yo‘ldashova Sevara
Toshkent davlat yuridik universiteti

Huquq sohalari, huquqiy va siyosiy tadqiqotlar amaliy tahlili mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsiy hayot daxlsizligini huquqiy jihatdan ta’minlash mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari va xalqaro huquqiy asoslari, ularning o‘zaro uyg‘unligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning jamiyat hayotiga keng joriy qilinishi fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash va himoya qilishga oid samarali huquqiy kafolatlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot doirasida milliy qonunchilikni xalqaro huququiy standartlar bilan uyg‘unligi, xususan, Inson huquuqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqular to‘g‘risidagi xalqaro pakt qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o‘rganildi. Qiyosiy tahlil jarayonida milliy huquuqiy tizimning yutuqlari, xalqaro standartlar bilan o’xshash va farqli jihatlari va amaliyotda holatlar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, maqolada milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va amaldagi mexanizmlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: shaxsiy hayot daxlsizligi, xalqaro pakt, shaxsga doir ma’lumotlar, xalqaro huquqiy standartlar, huquqiy himoya mexanizmlari, shaxsiy ma’lumotlar muhofazasi.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически проанализированы механизмы правового обеспечения неприкосновенности частной жизни на основе норм Конституции Узбекистана и международных правовых актов, а также их взаимосвязь. Стремительное развитие цифровых технологий и их широкое внедрение в жизнь общества обусловливают необходимость формирования эффективных правовых гарантий обеспечения и защиты неприкосновенности частной жизни граждан. В рамках исследования на основе сравнительно-правового анализа изучено соответствие национального законодательства международно-правовым стандартам, в частности Всеобщей декларации прав человека и Международному пакту о гражданских и политических правах. В процессе сравнительного анализа рассмотрены достижения национальной правовой системы, сходства и различия с

международными стандартами, а также практические аспекты их применения. Кроме того, в статье выдвинуты научные и практические предложения по адаптации национального законодательства к международным стандартам и дальнейшему совершенствованию действующимеханизмов.

Ключевые слова: неприкосновенность частной жизни, международный пакт, персональные данные, международно-правовые стандарты, механизмы правовой защиты, защита персональных данных.

Abstract: This article presents a scientific and theoretical analysis of the mechanisms for the legal protection of the right to privacy based on the provisions of the Constitution of Uzbekistan and international legal frameworks, as well as their practical coherence. The rapid advancement of digital technologies and their widespread integration into social life necessitate the establishment of effective legal guarantees to secure and protect citizens’ privacy. Within the scope of this study, the compliance of national legislation with international legal standards - specifically the Universal Declaration of Human Rights and the International Covenant on Civil and Political Rights - was examined using comparative legal analysis. The comparative analysis explored the achievements of the national legal system, identifying similarities and differences with international standards, alongside practical legal scenarios. Furthermore, the paper formulates scientific and practical recommendations aimed at harmonizing national legislation with international standards and improving existing legal mechanisms.

Keywords: right to privacy, international covenant, personal data, international legal standards, legal protection mechanisms, personal data protection.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot makonining kengayishi va globallashuv jarayonlari inson huquq va erkinliklarini, jumladan, uning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta'minlash masalasini har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shaxsiy hayot daxlsizligi va inson huquq va erkinliklarini ta’minlash demokratik huquqiy davlatning ustuvor tamoyillari hisoblanadi. Mazkur huquqning ishonchli himoya qilinishi nafaqat milliy qonunchilik darajasida, balki xalqaro huquqiy standartlarga to‘liq mos keluvchi samarali mexanizmlarni yaratishni taqozo etadi. Shaxsiy hayot daxlsizligini xalqaro darajada himoya qilishning muhim huquqiy asoslaridan biri 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktdir. Pakt 35 ta davlat ratifikatsiya qilganidan keyin 3 oy o‘tgach kuchga kirgan. O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 128-I-sonli Qarori asosida ratifikatsiya qilgan va 1995-yil 28-dekabrdan kuchga kirgan. Davlatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsiy hayot daxlsizligi kafolatlarini yanada kuchaytirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy huquq tizimining xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalari bilan uyg‘unligini ta'minlash, Birlashgan

Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt talablarini amaliyotga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodlar

Mazkur masalani tadqiq etishda shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlashga oid xalqaro huquqiy normalar mazmunini tahlil etish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishga oid milliy qonunchilik normalarini o‘rganish hamda xalqaro standartlar va milliy qonunchilikni qiyosiy-huquqiy tadqiq etish orqali mavjud huquqiy muammolarni aniqlash hamda qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilab olindi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik, tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism

1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga, uy-joyiga va yozishmalariga o‘zboshimchalik bilan aralashish, shuningdek, uning sha’ni va obro‘siga tajovuz qilish mumkin emasligi belgilangan.[1] Mazkur modda bunday aralashuv va tajovuzlardan qonun orqali himoyalanish huquqini ham e’tirof etadi. Deklaratsiyaning 12-moddasi mazmunidan ko‘rinadiki, shaxsiy hayot daxlsizligi faqat insonning oilaviy yoki maishiy hayoti bilan cheklanmaydi. U yozishmalar, turar joy, sha’n va obro‘ kabi insonning shaxsiy hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta yo‘nalishni qamrab oladi. Shu bilan birga, mazkur modda davlat va boshqa subyektlarning shaxsiy hayotga o‘zbosimchalik bilan aralashishiga qarshi huquqiy himoyani nazarda tutadi. Ushbu norma 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 17-moddasida yanada aniq shaklda mustahkamlangan.[2] Xususan, moddaning birinchi qismida hech kim shaxsiy va oilaviy hayotiga, uy-joyiga yoki yozishmalariga o‘zboshimchalik bilan yoxud qonunga xilof ravishda aralashuvga, shuningdek, sha’ni va obro‘siga noqonuniy tajovuzga duchor etilmasligi belgilangan. Xalqaro paktning 2-moddasiga ko’ra, ishtirokchi davlatlar paktda belgilangan huquqlarni ta’minlash va ularni amalga oshirish uchun zarur choralar ko‘rish majburiyati yuklangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 31-moddasiga muvofiq, har bir insonning shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga egaligi mustahkamlangan.[3] Har bir inson yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega ekanligi o‘z aksini topgan. Shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash davlatdan nafaqat tegishli huquqiy kafolatlarni belgilashni, balki ularning amalda ishlashini ta’minlovchi faol choralarni ko‘rishni ham talab etadi. Bunda shaxsiy hayotga noqonuniy aralashuv kim tomonidan

[1] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

[2] Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt

[3] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

sodir etilganidan qat’i nazar, bunday xatti-harakatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun zarur huquqiy mexanizmlar yaratilishi lozim. Xususan, davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslarning shaxsiy hayot daxlsizligiga tajovuz qiluvchi harakatlari qonunchilik bilan taqiqlanishi hamda bunday huquqbuzarliklar uchun tegishli javobgarlik choralari belgilanishi zarur.

Agar shaxs haqidagi ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki haqiqatga mos kelmaydigan bo‘lsa, u ularning tuzatilishini talab qilish huquqiga ega. Bu kafolat inson to‘g‘risidagi noto‘g‘ri axborotning saqlanishi yoki undan foydalanilishi natijasida uning huquq va qonuniy manfaatlariga zarar yetishining oldini olishga xizmat qiladi. Ushbu norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 17-moddasida nazarda tutilgan shaxsiy hayot, oilaviy hayot, sha’n va obro‘ni himoya qilish kafolatlari bilan mazmunan uyg‘un hisoblanadi.
O‘zbekiston Respublikasiningning O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi” Qonuni xalqaro pakt normali bilan o‘zaro uyg‘unligini aniq mexanizmlar orqali ko‘rish mumkin.Shaxsiy hayotga noqonuniy aralashuvning oldini olish, xalqaro pakt insonning shaxsiy hayotiga noqonuniy aralashishdan himoyalanish huquqini belgilaydi. Milliy qonunchilik esa ushbu huquqni davlat organlari, tashkilotlar va ma’lumotlar bilan ishlovchi boshqa subyektlarning faoliyatiga nisbatan tatbiq etadi. Masalan, davlat tashkiloti fuqaroning shaxsiy ma’lumotlarini o‘z vakolatiga aloqador bo‘lmagan maqsadda yig‘ishi yoki ulardan foydalanishi mumkin emas. Bunday harakatning qonuniyligi uning huquqiy asosiga va belgilangan maqsadiga bog‘liq. Shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash O‘RQ-547-son Qonunning 28-moddasi shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligini belgilaydi.[4] Unga ko‘ra, subyektning roziligisiz yoki boshqa qonuniy asos mavjud bo‘lmagan hollarda ma’lumotlarni oshkor qilish va tarqatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Pakt umumiy tarzda shaxsiy hayotning daxlsizligini kafolatlasa, milliy qonun ushbu daxlsizlikni ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish va tarqatishni cheklash orqali ta’minlaydi.

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning minimal standartlari Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning xalqaro standartlari 40 yil davomida rivojlandi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, shaxsiy ma’lumotlar tarixan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining bir elementi shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar sifatida ko‘rib chiqilgan. Buni xalqaro hujjatlarda “ma’lumotlar maxfiyligi” (data privacy) va “shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi” (right to privacy) atamalarining bir galikda ishlatilishida ko‘rish mumkin. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha xalqaro darajadagi birinchi hujjatlardan biri 1980-yildagi Yevropa Kengashining 108-sonli konvensiyasi bo‘lib, De Terwang ne’ga ko‘ra, ushbu xalqaro hujjat shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha dastlabki minimal standartlar deb hisoblanadi. Ushbu hujjatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, sakkizta tamoyilni ajratib ko‘rsatish mumkin;

[4] “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi” qonun O‘RQ-547

1. Cheklangan yig‘ish prinsipi - ma’lumot lar qonuniy, ma’lumotlar subyektining roziligi bilan olinishi kerak.
2. Ma’lumotlar sifati prinsipi - shaxsiy ma’lumotlar ulardan foydalanish maqsadlariga mos kelishi va bu borada aniq, to‘liq va dolzarb bo‘lishi kerak.
3. Maqsadni aniqlash prinsipi - shaxsiy ma’lumotlarni to‘plash maqsadlari ma’lumotlarni yig‘ish vaqtidan kechiktirmasdan aniqlanishi kerak.
4. Foydalanishni cheklash prinsipi - shaxsiy ma’lumotlar oshkor qilinmasligi, yig‘ish jarayonlarida ko‘rsatilganlarga mos kelmaydigan maqsadlarda foydalanilmasligi kerak.
5. Xavfsizlik prinsipi - shaxsiy ma’lumotlar yo‘qolishi yoki ruxsatsiz kirish, yo‘q qilish, foydalanish, o‘zgartirish yoki ma’lumotlarni oshkor qilish kabi xavflardan oqilona xavfsizlik choralari bilan himoyalangan bo‘lishi kerak.
6. Ochiqlik prinsipi - shaxsiy ma’lumotlar sohasidagi ishlanmalar, amaliyotlar va siyosatlarga nisbatan umumiy ochiqlik siyosati bo‘lishi kerak.[5]

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning Yevropa standartlari

Shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish tizimida jismoniy shaxslarning huquqlarini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ma’lumotlar subyekti o‘ziga tegishli axborot bilan tanishish, uning mazmunini tekshirish hamda noto‘g‘ri yoki eskirgan ma’lumotlarga tegishli tuzatishlar kiritishni talab qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu qoida shaxsning o‘z ma’lumotlari ustidan nazoratini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ma’lumotlarni qayta ishlovchi tashkilotlar zimmasiga alohida mas’uliyat yuklanadi. Ular shaxsiy axborot bilan ishlash jarayonida belgilangan huquqiy talablar va himoya qoidalariga rioya etilishini ta’minlashi, tegishli tashkiliy hamda texnik choralarni amalga oshirishi lozim. Mazkur yondashuv ma’lumotlar xavfsizligi uchun javobgarlikni bevosita ularni qayta ishlovchi subyekt zimmasiga yuklaydi.

Bugungi kunda ushbu talablar ko‘plab davlatlarning shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid milliy qonunchiligida o‘z ifodasini topgan.

Shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro huquqiy mexanizmlarning rivojlanishida Yevropa Kengashining 108-sonli konvensiyasiga 2001-yilda qabul qilingan qo‘shimcha protokol alohida o‘rin tutadi. Mazkur hujjat ma’lumotlarni himoya qilishning takomillashtirilgan standartlarini shakllantirishga zamin yaratdi. Xususan, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish darajasi yetarli bo‘lmagan davlatlarga axborot uzatish masalasiga cheklovlar belgilash mexanizmi joriy etildi.[6]

Bundan tashqari, ma’lumotlarni yig‘ishda zaruriyat mezoniga rioya qilish talabi kuchaytirildi. Ya’ni tashkilotlar o‘z faoliyati uchun haqiqatan kerak bo‘lgan hajmdagi axborotnigina to‘plashi va undan belgilangan maqsad doirasida foydalanishi lozim. Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash qonuniy asosga ega bo‘lishi hamda bunday jarayonning huquqiy jihatdan asoslanganligi ta’minlanishi kerak.

[5] Yevropa Kengashining 108-sonli konvensiyasi

[6] Yevropa Kengashining 108-sonli konvensiyasi

Yuqori xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan axborot tizimlari faoliyatga joriy etilishidan avval dastlabki baholash va tekshiruvdan o‘tkazilishi ham ushbu standartlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ma’lumotlardan foydalanish maqsadi yakunlangach, ularni saqlashni davom ettirish zarurati bo‘lmasa, tegishli axborot yo‘q qilinishi yoki shaxsni aniqlash imkonini bermaydigan shaklga keltirilishi talab etiladi.

Alohida himoya talab qiladigan nozik toifadagi ma’lumotlar bilan ishlashda esa qo‘shimcha xavfsizlik kafolatlari nazarda tutiladi. Bunday ma’lumotlarga nisbatan kuchaytirilgan huquqiy va tashkiliy choralarni qo‘llash shaxslarning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Texnologik taraqqiyot natijasida avtomatlashtirilgan tizimlar orqali qarorlar qabul qilish amaliyoti kengayib borayotgani sababli, ushbu jarayon ustidan inson nazoratini ta’minlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Xususan, shaxsning huquq va manfaatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan avtomatlashtirilgan qarorlar inson tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi imkoniyati mavjud bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, ma’lumotlar subyektiga o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan avtomatlashtirilgan qayta ishlash jarayonining asosiy mantiqiy mexanizmlari haqida tegishli axborot olish imkoniyati berilishi kerak.

Shaxsiy ma’lumotlardan bevosita marketing maqsadlarida foydalanishda ham shaxsning tanlov huquqi e’tiborga olinadi. Bunda fuqarolarga o‘z ma’lumotlarining bunday faoliyatda ishlatilishiga qarshi chiqish imkoniyati yaratilishi nazarda tutiladi.

Mazkur talablar Yevropa davlatlarining shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilishga oid qonunchiligini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

Keyingi bosqichda katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalarining rivojlanishi, raqamli platformalar faoliyatining kengayishi hamda xususiy kompaniyalar tomonidan fuqarolarga tegishli axborotlarning katta miqdorda to‘planishi ma’lumotlarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada Yevropa Ittifoqida shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilishning yangi huquqiy mexanizmlari ishlab chiqildi.

Xususan, 2018-yilda Yevropa Parlamenti va Kengashining 2016/679-sonli reglamenti, ya’ni Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) amaliyotga to‘liq joriy etildi.[7] Ushbu hujjat jismoniy shaxslarning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlash jarayonida ularning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, bunday ma’lumotlarning Yevropa Ittifoqi hududida erkin harakatlanishini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan.

Shu bilan bir qatorda, 2016-yil 27-aprelda Yevropa Parlamenti va Kengashi tomonidan 2016/680-sonli direktiva ham qabul qilindi. Mazkur hujjat vakolatli davlat organlari tomonidan jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, tergov qilish va fosh etish jarayonida shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.[8]

---

[7] Yevropa Ittifoqining reglamenti (GDPR

[8] Yevropa Parlamenti va Kengashi direktive 2016/680

Yevropa Ittifoqida amalga oshirilgan ushbu huquqiy islohotlar bir qator muhim yangiliklarni yuzaga keltirdi.

Birinchidan, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid talablar Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar uchun yagona huquqiy standart asosida belgilandi. Bu esa turli davlatlarda ma’lumotlarni muhofaza qilish qoidalarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlashga xizmat qildi.

Ikkinchidan, ma’lumotlarni qayta ishlovchi kompaniya va tashkilotlarning mas’uliyati kuchaytirildi. Endilikda ulardan faqat qonunchilik talablariga rioya etish emas, balki ushbu talablarning bajarilishini tasdiqlovchi ichki mexanizmlarni ham shakllantirish talab etiladi.

Uchinchidan, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligining jiddiy buzilishi holatlarida vakolatli nazorat organlarini xabardor qilish majburiyati belgilandi. GDPR talablariga muvofiq, bunday xabarnoma imkon qadar qisqa muddatda, imkoniyat mavjud bo‘lganda esa buzilish holati aniqlanganidan keyin 72 soat ichida yuborilishi kerak.

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqida shakllangan mazkur huquqiy tizim shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishni oddiy axborot xavfsizligi masalasi sifatida emas, balki insonning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadi.

XULOSA

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari, shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlarning qiyosiy tahlili O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Mazkur sohadagi mavjud huquqiy munosabatlarni takomillashtirish maqsadida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish taklif etiladi.

Birinchidan, shaxsga doir ma’lumotlar ustidan nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bunda ma’lumotlar subyektlari hamda ularni qayta ishlovchi operatorlar o‘rtasidagi munosabatlarning ochiqligini ta’minlash, axborotdan foydalanish jarayonlarini shaffof tashkil etish va ma’lumotlar almashinuvini samarali boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan keng foydalanish lozim.

Ikkinchidan, shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarning institutsional javobgarligini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Buning uchun ma’lumotlar bilan ishlashga vakolatli operatorlarni tanlash mezonlarini takomillashtirish, mas’ul xodimlarning kasbiy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish tizimini yo‘lga qo‘yish talab etiladi.

Uchinchidan, shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlashga taalluqli ma’lumotlarning yagona reyestrini shakllantirish taklif etiladi. Bunday tizim shaxsiy ma’lumotlardan foydalanish tartibini tizimlashtirish, ularning qonuniyligini nazorat qilish hamda jamoat va davlat manfaatlari yo‘lida foydalanishning aniq huquqiy chegaralarini belgilash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, ekspertlar va mas’ul xodimlar uchun yagona kasbiy malaka mezonlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu mezonlar mutaxassislarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi, ma’lumotlarni huquqiy qayta ishlash va shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash bo‘yicha amaliy kompetensiyalarini ham qamrab olishi kerak.

Yuqoridagi takliflarning izchil amalga oshirilishi O‘zbekistonda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini samarali kafolatlash hamda raqamli muhitda shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi” qonun O‘RQ-547
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
4. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt
5. Yevropa Kengashining 108-sonli konvensiyasi
6. Yevropa Ittifoqining reglamenti (GDPR)
7. Yevropa Parlamenti va Kengashi direktive 2016/680